

## MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA QIZIQARLI DIDAKTIK MASHG'ULOTLARNING O'RNI

Bekdurdiyev Zufarbek Shodlik o'g'li

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Qo'shko'pir tuman  
ixtisoslashtirilgan maktabning matematika fani o'qituvchisi  
[zufarbekbekdurdiyev@gmail.com](mailto:zufarbekbekdurdiyev@gmail.com)

Rajabboyev Rasulbek Jasurbekovich

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Qo'shko'pir tuman  
ixtisoslashtirilgan maktabning o'quvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada matematika fanini o'qitishda qiziqarli didaktik mashg'ulotlar olib borish, o'quvchilarda tez hisoblash ko'nikmasini oshirish, turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** didaktik mashg'ulotlar, zamonaviy metodlar, qiziqarli masalalar.

### Kirish

Hozirgi kunda maktablarda matematika fanini o'qitishning turli xil zamonaviy metodlar orqali amalga oshirish, darsda ko'proq amaliy qismga e'tiborni qaratish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Darsda turli xil didaktik o'yinlarni qo'llash orqali, o'quvchilarda matematik qobiliyatlarini shakllantirish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini oshirish mumkin bo'ladi. Matematika fanini o'qitishda asosan kichik sinflardan o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni oshirishga qaratilgan, hamda o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qilishiga e'tibor qaratilishi lozim. Matematika fanini darsda turli xil metodikalarni qo'llagan holda olib borish, o'quvchilarda matematik mushohada qilish ko'nikmasini oshirishga xizmat qiladi. Asosan, o'quvchilarga matematika fanini bevosita hayotiy masalalar orqali bog'lab o'rgatish juda yaxshi samara beradi.

**Asosiy qism.** Darsni turli xil metodlar orqali tashkil qilish, dars samaradorligini oshirishda, o'quvchilarni bilim ko'rsatkichlariga oshirishga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy hamda interaktiv metodlar orqali dars o'tish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Darsda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar va metodlar o'quvchi yosh va fiziologiyasiga qarab tanlanishi lozim.



- **Ha yoki Yo‘q didaktik o‘yini**

Bu didaktik o‘yin o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda o‘quv fani bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash uchun yaxshi samara beradi. Bu didaktik mashg‘ulotda ikki nafar o‘quvchini doskaga chiqarib, har bir o‘quvchi uchun ikkita stol qo‘yiladi. O‘quvchilar bir-birlarini ko‘rmagan holda o‘qituvchi tomonidan berilgan ma‘lumotga javob “ha” deb qabul qilsa, o‘ng tarafidagi stolga o‘tiradi va aksincha o‘qituvchi tomonidan aytilgan ma‘lumot yoki biror qoida noto‘g‘ri deb hisoblasa, chap tomonidagi stolga o‘tiradi. Bunda o‘quvchilarning bilim doirasi va tezkorligi baholanadi.

- **Minora didaktik o‘yini**

Bu didaktik o‘yinda o‘quvchilar jamoaviy tarzda guruhlarga ajratiladi hamda o‘quvchilar uchun bir xil miqdorda A4 formatdagi qog‘oz va bir nechta zarur materiallar tarqatiladi. Bunda sinfdagi jamoalar belgilangan vaqt daavomida stol ustida eng katta minorani hosil qilishlari kerak bo‘ladi. Bu didaktik mashg‘ulot o‘quvchilarda matematik mulohaza yuritish ko‘nikmasini oshiradi. Minorani oddiy qog‘oz yordamida qanday shaklda qurish va uning poydevorini mustahkamlash bo‘yicha o‘quvchilar aniq rejalarini ishlab chiqib, topshriqni bajarishadi.

- **Xo‘p didaktik o‘yini**

Bu didaktik o‘yinda o‘quvchilar doskaga taklif qilinib, ularga sonlarni ketma-ket aytish topshiriqi beriladi. Didaktik o‘yinining asosiy sharti 3 ga karrali son qaysi o‘quvchining navbatida kelsa, bu o‘quvchi sonni o‘rniga “xo‘p” so‘zini aytishi lozim bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarni tezkorligi hamda sonlarning bo‘linish belgilarini bilish darajasi aniqlanadi.

**Xulosa.** Matematika fanini o‘qitishda turli xil kreativ yondashuvlar asosida didaktik mashg‘ulotlar orqali dars jarayonini tashkillashtirish yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda asos bo‘ladi. Har bir dars bir buyuk asar kabidir. O‘qituvchining pedagogik mahorati ham o‘quvchilarni fanni qay darajada o‘zlashtirishi, fan bo‘yicha yangi bilimlar qay darajada olishiga bog‘liq bo‘ladi. Darslarda turli xil metodlar, didaktik mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirish hamda muammoli masalalarni yechishda mustaqil qaror qabul qilishini rivojlantiradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo‘ldoshev J. “Pedagogik texnologiya asoslari”. “O‘qituvchi” Toshkent-2004-yil
2. Yunusova D. “Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari” (darslik) Toshkent-2007 yil.
3. Mirzayev Ch., Sodiqov U., Baxromov J. “Psixik taraqqiyot va ta’lim muammolari” O‘zMU Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasini ilmiy maqolalar davriy to‘plami. 2013 yil.

